

**“UYAT” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONIGA KIRUVCHI TIL
BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA ADEKVAT
TARJIMA QILISH METODIKASI**

Xolmurodova Gulhayo Ne'matovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktranti

Annotatsiya “Uyat” tushunchasi o'zbek milliy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi va u shaxsning axloqiy-ma'naviy qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Mazkur tushuncha atrofida shakllangan leksik-semantik maydon rang-barang til birliklarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada “uyat” leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini o'zbek tilidan ingliz tiliga adekvat tarjima qilish metodikasi taklif etiladi. Tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik, semantik va pragmatik muammolar tahlil qilinadi hamda ularni hal etishning samarali usullari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, tarjima, tushuncha, leksik-semantik maydon, semantic, pragmatik, usul.

Аннотация Понятие “стыд” является неотъемлемой частью узбекской национальной культуры и представляет собой один из важных факторов, определяющих нравственно-духовный облик личности. Лексико-семантическое поле, сформированное вокруг данного понятия, включает в себя разнообразные языковые единицы. В данной статье предлагается методика адекватного перевода языковых единиц, входящих в лексико-семантическое поле “стыд”, с узбекского языка на английский язык. Анализируются лингвистические, семантические и прагматические проблемы, возникающие в процессе перевода, а также показываются эффективные способы их решения.

Ключевые слова: культура, перевод, понятие, лексико-семантическое поле, семантический, прагматический, метод.

Annotation *The concept of “shame” constitutes an integral part of Uzbek national culture and represents one of the crucial factors that determine the moral and spiritual character of an individual. The lexical-semantic field formed around this concept encompasses diverse linguistic units. This article proposes a methodology for the adequate translation of linguistic units belonging to the lexical-semantic field of “shame” from Uzbek into English. The study analyzes linguistic, semantic, and pragmatic problems that arise during the translation process and demonstrates effective approaches to resolving them.*

Keywords: *culture, translation, concept, lexical-semantic field, semantic, pragmatic, method.*

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimida “uyat” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Bu tushuncha nafaqat ichki hissiyot, balki ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. “Uyat” leksik-semantik maydoni o'zbek tilidagi quyidagi tushunchalarni qamrab oladi: shaxsiy xulq-atvorga bog'liq uyat, jamiyatda qabul qilingan me'yorlarni buzish natijasida yuzaga keladigan uyat va ijtimoiy baho va munosabat ifodalovchi uyat, oilaviy munosabatlarda uyat. Bu tushunchalar o'zbek mentalitetining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali milliy-madaniy qadriyatlar ham ifodalanadi.[1,46b]

O'zbek tilidagi “uyat” leksik-semantik maydoniga oid til birliklarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ayrim o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Shulardan biri konseptual nomuvofiqlik bo'lib, o'zbek va ingliz madaniyatlarida “uyat” tushunchasining konseptual mazmuni va chegaralari har xilligi natijasida yuzaga keladi. Yana bir muammo to'liq ekvivalentlarning yo'qligidir. “Ibo”, “hayo”, “or-nomus”, “uyat” kabi so'zlarning ingliz tilida to'liq ekvivalentlari mavjud emas. Bundan tashqari, kontekstual ma'no o'zgarishlari ham tarjima jarayonida ma'lum darajada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. “Uyat” so'zi kontekstga qarab turli ma'nolarni ifodalashi mumkin (masalan, “uyat bo'ladi” iborasi tanbeh, ogohlantirish yoki qoralash ma'nolarida qo'llaniladi). Bundan tashqari, madaniy-pragmatik qadriyatlarda ham tafovutlar mavjud bo'lib bu “uyat” bilan bog'liq tushunchalar o'zbek madaniyatida ijobiy yoki salbiy ma'no kasb etishi

mumkin, ammo bu ingliz tiliga tarjima qilinganda saqlanmasligi mumkin. Masalan, "...bu qiz juda uyatchan, yaxshi tarbiya olgan" – bu gapda "uyatchan" bo'lish fazilat hisoblanadi, yaxshi tarbiyaning belgisidir. Ushbu gapni ingliz tiliga tarjima qilinganda "This girl is very shy" - ingliz madaniyatida "shy" ko'pincha salbiy sifat, ijtimoiy faoliyatda kamchilik deb baholanadi. Ushbu holatni madaniy tafovut bilan izohlash mumkin, ya'ni o'zbek tili kontekstidagi ijobiy baho (kamtarlik, hayolilik, poklik) ingliz tilida yo'qoladi.[3,19b]

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi metodlarni taklif etish mumkin:

Kontekstual ekvivalentlar metodi

Ushbu metodga ko'ra, "uyat" leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini tarjima qilishda kontekstga qarab turli ekvivalentlardan foydalaniladi:

- "Uyat" → "shame" (umumiy ma'noda), "embarrassment" (noqulay vaziyatlarda), "modesty" (ibo-hayo ma'nosida)
- "Uyalmoq" → "to be ashamed" (umumiy ma'noda), "to feel embarrassed" (noqulaylik hissini ifodalashda), "to feel shy" (tortinchoqlik ma'nosida)
- "Uyatli" → "shameful" (salbiy baho), "modest" (ijobiy baho), "embarrassing" (noqulay holat)

Komponent tahlil va transformatsiya metodi

Ushbu metod "uyat" leksik-semantik maydoniga kiruvchi so'zlarning semantik komponentlarini aniqlash va ularni ingliz tilidagi eng yaqin ekvivalentlari bilan ifodalashga asoslanadi. Masalan, "ibo-hayo" tushunchasi komponentlarga ajratilib ("o'zini tuta bilish", "iffatlilik", axloqiy me'yorlarga rioya qilish"), ingliz tilidagi "self-restraint", "chastity/purity", "moral compliance" ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Ushbu tushunchaning ingliz tilidagi transformatsiyasiga misol qilib "Ibo-hayo" so'z birikmasini "dignified modesty with moral integrity" deb tarjima qilinish holatini kuzatishimiz mumkin, ya'ni o'zbek tilidagi "Bu ayol ibo-hayoli" gapini ingliz tiliga transformatsiya qilinga holda "This woman embodies

dignified modesty with strong moral principles” tarzida tarjima qilish mumkin.[4,94]

Madaniy adaptatsiya metodi

Ushbu metod o'zbek tilidagi "uyat" leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini ingliz tilidagi madaniy jihatdan eng yaqin analoglar bilan almashtirish orqali tarjima qilishni nazarda tutadi:

- “Uyatsiz” → “shameless”, “brazen”, “impudent” (kontekstga qarab)
- “Uyatga qolmoq” → “to be put to shame”, “to be disgraced”, “to be embarrassed”

Kombinatsiyalashgan metod

Ko'p hollarda "uyat" leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini tarjima qilishda yuqoridagi metodlarning kombinatsiyasidan foydalanish eng samarali natija beradi. Masalan: “Qizimiz uyatli, iboli” → “Our daughter is modest and well-mannered” (madaniy adaptatsiya) + “she has a strong sense of propriety and moral dignity typical in Uzbek culture” (izohli tarjima).

“Uyat” leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini o'zbek tilidan ingliz tiliga adekvat tarjima qilish uchun kompleks metodologik yondashuv zarur bo'lib bunda tarjimon nafaqat leksik ekvivalentlarni tanlashi, balki madaniy-pragmatik xususiyatlarni ham hisobga olishi kerak. Taklif etilgan metodikalarning chambarchas holda qo'llanilishi ushbu til birliklarining semantik, pragmatik va emotsional-ekspressiv jihatlarini saqlab qolishga imkon beradi.[2,26b]

Tarjima amaliyotida “uyat” leksik-semantik maydoniga kiruvchi til birliklarini o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girish jarayonida kontekst, madaniy fon, pragmatik maqsad va kommunikativ vaziyat kabi omillarni hisobga olish zarur. Bu esa tarjimaning adekvat bo'lishini ta'minlash bilan birga, ikki madaniyat o'rtasidagi ko'priq vazifasini o'tashga ham xizmat qiladi.[5,106b]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. New York: Anchor Books
2. House, J. (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present* (2nd ed.). London: Routledge.

3. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Pym, A. (2010). *Exploring Translation Theories*. London: Routledge.
5. Triandis, H. C. (1995). *Individualism and Collectivism*. Boulder: Westview Press.